

Инглиз тили  
3-дарс  
singular and plurals

Ingliz tilida ko'plik (plural) shakli yasash uchun ko'pgina otlarga -s qo'shimchasini qo'shamiz. Masalan: birlikda book bo'lsa undan ko'plik yasash uchun -s qo'shimchasini qo'shsak kifoya:  
books – kitoblar.

O'zbek tiliga -sqo'shimchasi **-lar** deb tarjima qilinadi.

one flower – two flowers

one zebra – four zebras

one lion – three lions

Lekin hamma otlarga ham -s qo'shimcha qo'shilmaydi. **-s, -ss, -sh, -ch, -x**, yoki **-o** harflari bilan tugagan otlarga ko'plik yasash uchun **-es** qo'shimchasi qo'shiladi.

one bus – two buses

Quyidagi mashqda ko'plik shaklini yasang.

1. watch – \_\_\_\_\_

2. glass – \_\_\_\_\_

3. tomato – \_\_\_\_\_

4. brush – \_\_\_\_\_

5. box – \_\_\_\_\_

6. dish – \_\_\_\_\_

So'z oxirida **undosh harf** va **y** harfi kelgan otlarga **y** harfini tushirib qoldirib, **-ies** qo'shimchasini qo'shamiz. Masalan: one baby – two babies Lekin, so'z oxirida **unli harf** va **y** kelsa, u holda **-s** qo'shimchasini o'zi qo'shiladi. Masalan: toy – toys

Ko'pgina otlarning ko'plik shakli shu qoidalar asosida yasaladi. Ammo, ba'zi otlar borki ular bu qoidalarga bo'ysunmaydi. Ularni biz **irregular plurals** deymiz. Ularning o'zini ko'plik shakli bor bo'lib, **-s**, **-es**, yoki **-ies** emas aynan o'sha shaklini ishlatishimiz kerak bo'ladi. Masalan *one man – two men*. Ushbu ro'yxatdagi so'zlarga **-s** qo'shimcha qo'shsak xato bo'ladi. Bu so'zlar ro'yxatini yaxshisi yodlab olganingiz ma'qul. Ular unchalik ham ko'p emas. Ularning ba'zilarini keltirib o'taman:

## Irregular Plurals



one man



two men



one woman



two women



one child



two children



one person



two people



one tooth




two teeth




one foot




two feet




one mouse




two mice




one fish



two fish



one sheep



two sheep

## New words (Yangi so'zlar):

flower – gul

lion – sher

bus – avtobus

watch – qo'l soat

tomato – pomidor

brush – chotka

box – quti

dish – idish

baby – go'dak